



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Boysun t., Hayot Abadiy ko‘chasi 1-uy. 190400, tel.: (+99876) 33-5-20-64, boysun_t@exat.uz, http://baysun.uz

2022 - yil 27 - may

213-8-110-Q/22

Boysun tuman hokimligi

**Tumanda tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 12, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta‘minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quyidagilar:

tuman hududidagi hamda o‘rmon fondi yerlarida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me‘yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari 1-ilovaga;

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me‘yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Ch.Abdunazarov), Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Ostanaqulov), tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaaza qilish sohasidagi nazorat bo‘limi (I.A‘zamov)lar bilan birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta‘minlasinlar.

3. Ushbu qaror “Boysun” gazetasida e‘lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab

kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Normamatov va tuman hokimining o‘rinbosari Ch.Abdunazarov zimmlariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Ch.Jo'rayev

Boysun tuman hokimining
2022 yil 27 maydagi
213-8-110-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi hamda o‘rmon fondi yerlarida tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me‘yorlari, muddatlari va o‘tlatishga ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov

MIQDORLARI

T/r	Chorva mol turi	O‘lchov birligi (bosh)	O‘tlatishning me‘yorlari (talab etiladigan maydon, ga)	Muddati	Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori (bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib) % da
1.	6 oydan katta qo‘ylar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
2.	6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar	bosh	1 ga	1 yil	0.03 %
3.	6 oydan katta echkilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
4.	6 oygacha bo‘lgan uloqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.03 %
5.	Katta yoshdagi qoramollar	bosh	1 ga	1 yil	0.45 %
6.	Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.15 %
7.	Katta yoshdagi otlar	bosh	1 ga	1 yil	0.45 %
8.	Ikki yoshgacha bo‘lgan toylar	bosh	1 ga	1 yil	0.15 %
9.	Katta yoshdagi eshaklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.45 %
10.	Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar (uy hayvoni)	bosh	1 ga	1 yil	0.15 %

Boysun tuman hokimining
2022 yil 27 maydagi
213-8-110-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g'amlashning
me'yorlari**

Foydalanish muddati	Pichan o'rish miqdori hajmlari <i>(kg, tonna, kubametr)</i>	Ajratiladigan maydon, ga	Ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to'lov miqdori
Bir yil (mavsum davrida)	kg	1 ga	Bazaviy hisoblash miqdorining 150 % miqdorida